

O'zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to'g'risida

MA'LUMOT*



*(Narxlarni ro'yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o'tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o'zgarib turadi. Mazkur ma'lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do'konlardagi narxlar inobatga olinmagan**)).*

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2020- yil 27- oktabr kuni**** o'tkazilgan kuzatuv natijalari bo'yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

Suyakli mol go'shti

45 000 so'mdan 60 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori", Urganch shahrining "Urganch markaziy dehqon bozori", Toshkent shahrining "Eski jo'va dehqon bozori", "Farhod dehqon bozori" va "Qo'yliq dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (45 000 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori", Andijon shahrining "Yangi bozor dehqon bozori", Jizzax shahrining "Jizzax markaziy dehqon bozori" va "Eski shahar dehqon bozori", Navoiy shahrining "Saxovat" bozori, Samarqand shahrining "Siyob dehqon bozori", "Temiryo'l dehqon bozori"



va "Damariq dehqon bozori", Guliston shahrining "Guliston dehqon bozori", Yangiyo'l shahrining "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori", Urganch shahrining "Urganch markaziy dehqon bozori", Toshkent shahrining "Eski jo'va dehqon bozori", "Oloy dehqon bozori", "Farhod dehqon bozori", "Qo'yliq dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori"da kuzatildi (60 000 so'm).

Qo'y go'shti **45 000 so'mdan 75 000 so'mgacha (kg)**



Qo'y go'shtining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko'ra, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da (45 000 so'm) ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori"da (75 000 so'm) kuzatildi.



Kartoshka **2 500 so'mdan 6 000 so'mgacha (kg)**

Kuzatuv natijalariga ko'ra, Namangan shahrining "Namangan chorsu dehqon universal bozori", Chirchiq shahrining "Chirchiq dehqon bozori", va Toshkent shahrining "Qo'yliq dehqon bozori"da sotuvdagi yirik bo'lmagan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (2 500 so'm) qayd etilgan.





Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori” da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (6 000 so‘m) qayd etildi.

Piyoz

800 so‘mdan 3 500 so‘mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da (800 so‘m) ro‘yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (3 500 so‘m).



Sabzi

1 000 so‘mdan 5 000 so‘mgacha (kg)

Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”, Termiz shahrining “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Farg‘ona shahrining “Farg‘ona shahar markaziy dehqon bozori”da (1 000 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da sotuvdagi tozalangan va saralangan sabzining narxi maksimal narx sifatida (5 000 so‘m) qayd etildi.

Tuxum

8 000 so‘mdan 15 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (8 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Farhod dehqon bozori”da qayd etilgan (15 000 so‘m).



Guruch

5 000 so‘mdan 19 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”, “Oloy dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (“Nukus-2” navli guruch 5 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da kuzatildi (“Lazer” navli guruch 19 000 so‘m).

O'simlik yog'i

11 000 so'mdan 17 000 so'mgacha (litrl)



O'simlik yog'i mahsulotlarining kuzatuv natijasiga ko'ra minimal narxi Andijon shahrining "Yangi bozor dehqon bozori", va "Andijon shahar markaziy dehqon bozori", Yangiyo'l shahrining "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori", Toshkent shahrining "Eski jo'va dehqon bozori", "Farhod dehqon bozori", "Qo'yliq dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori"da (mahalliy paxta yog'i 11 000 so'm) kuzatildi.

Maksimal narxi esa, Yangiyo'l shahrining "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori"da va Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori"da (kungaboqar yog'i 17 000 so'm) kuzatildi.



Shakar

5 800 so'mdan 8 000 so'mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko'ra minimal narxi Toshkent shahrining "Eski jo'va dehqon bozori", "Farhod dehqon bozori", "Qo'yliq dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori"da (5 800 so'm) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Jizzax shahrining "Jizzax markaziy dehqon bozori" va "Eski shahar dehqon bozori", Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori"da (8 000 so'm) kuzatildi.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma'lumotlar quyidagi ko'rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***

2020- yil 27- oktabr holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 l.)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	45000	48000	3000	1300	1000	9000	5000	12500	6800
		max	60000	54000	4200	2000	2500	12000	14000	14500	7500
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	48000	55000	3000	1300	1200	8500	7500	11000	6000
		max	60000	65000	4000	2000	2500	11000	14000	15000	7500
3.	Andijon shahar “Andijon shahar markaziy dehqon bozori”	min	48000	55000	3300	1300	1250	8500	7500	11000	6000
		max	54000	65000	4500	2000	2500	11000	14000	15000	7500
4.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	50000	54000	3300	1300	1000	9000	6000	12000	6700
		max	57000	56000	4000	2200	2000	12000	14500	15500	7500
5.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	50000	50000	3000	1500	1500	10000	6000	13000	7500
		max	60000	60000	4000	2000	2500	11500	16000	14000	8000
6.	Jizzax shahar “Eski shahar dehqon bozori”	min	55000	55000	3500	1700	1500	10000	6000	13000	7500
		max	60000	63000	4000	2000	3000	11500	16000	14000	8000
7.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	50000	55000	3000	1300	1500	9500	6000	13000	6200
		max	54000	65000	4000	1800	2000	11000	15000	15000	7500
8.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	50000	55000	3000	1300	1300	10000	7000	13000	6000
		max	60000	60000	4000	2000	1800	11000	15000	15000	7500
9.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	48000	58000	2500	1000	1500	8000	6500	12500	7000
		max	55000	65000	4000	2000	2500	12000	17500	15000	7500
10.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	55000	63000	3500	1500	2000	10000	8000	13000	7000
		max	60000	68000	4000	2000	2500	12000	16000	16000	7500
11.	Samarqand shahar “Temiryo'l dehqon bozori”	min	60000	65000	3500	1500	2000	11000	8500	13000	7000
		max	60000	68000	4000	2000	2500	13000	17000	16000	7500
12.	Samarqand shahar “Damarq dehqon bozori”	min	58000	63000	3000	1000	2000	11000	7500	13000	7000
		max	60000	65000	3500	1500	2500	12000	15000	16000	7500
13.	Termiz shahar “Termiz shahar dehqon oziq-ovqat bozori”	min	50000	60000	3000	1500	1500	10000	7000	13000	7000
		max	50000	62000	4000	2000	2500	12000	15000	14000	7500
14.	Termiz shahar “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”	min	50000	60000	3000	1500	1000	9000	6000	12000	6000
		max	50000	62000	4000	2000	2000	12000	15000	14000	7200
15.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	52000	65000	2600	1000	1000	9000	6000	12000	7000
		max	60000	68000	3600	1500	2000	11000	14000	15000	7500
16.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	50000	55000	2500	1000	1500	9000	7000	11200	5900
		max	55000	60000	4000	2000	2000	12000	17000	16000	7500
17.	Yangiyo'l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori”	min	50000	55000	3000	1200	1500	8500	7000	11000	5900
		max	60000	70000	4000	2000	2500	13000	17000	17000	7500
18.	Farg'ona shahar “Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	50000	57000	3000	1500	1000	9000	7000	12500	5850
		max	58000	62000	4000	2000	2000	11000	14000	14000	7500
19.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	45000	65000	3500	2000	1500	8000	6500	14000	6000
		max	60000	65000	4000	2500	2000	12000	15000	16000	7500
20.	Toshkent shahar “Eski jo'va dehqon bozori”	min	45000	60000	2900	1500	2500	9000	5000	11000	5800
		max	60000	70000	5500	3000	3500	13000	18000	16250	7500
21.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	55000	60000	3000	1300	1800	9000	5000	12000	7500
		max	60000	65000	6000	3500	4000	15000	18000	17000	8000
22.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”**	min	45000	45000	2900	1500	1500	8500	5000	11000	5800
		max	60000	75000	4500	2500	3500	15000	17000	16000	7500
23.	Toshkent shahar “Qo'liq dehqon bozori”**	min	45000	52000	2500	2000	1700	9500	8000	11000	5800
		max	60000	70000	4500	2500	2500	14000	15000	16000	7400
24.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”**	min	55000	55000	2700	800	1800	9000	5000	11000	5800
		max	60000	75000	6000	3500	5000	12000	19000	17000	7500

Ayrim mahsulotlar narxlari darajasining o'zgarishi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining asossiz ko'tarilishini oldini olish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini qabul qilish bilan bog'liq.

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.

**) Tozalik kunlari jadvaliga muvofiq, ayrim bozorlarda sanitar-epidemiologik tadbirlar amalga oshirilayotganligi sababli, Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori", "Qo'yliq dehqon bozori" va "Farhod dehqon bozori"da kuzatuvlar bir kun oldin o'tkazilgan.